

O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi markaziy apparati va hududiy bo'linmalaridagi vakant boshqaruv lavozimlariga tanlov asosida ishga qabul qilishda nomzodlarni saralash komissiyasi tartibi to'g'risidagi NIZOM

Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi markaziy apparati va hududiy bo'linmalaridagi vakant boshqaruv lavozimlariga tanlov asosida ishga qabul qilish, mehnat shartnomasi va mehnat shartlariga o'zgartirish kiritish, ularni bekor qilish tartibini belgilaydi.

Ushbu Nizom qoidalari quyidagi toifdagi xodimlarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

texnik va xizmat ko'rsatuvchi toifadagi lavozimlar;

vazir maslahatchilari, yuridik xizmat, vazir yordamchisi;

amaldagi qonunchilikka muvofiq alohida tartibda ishga qabul qilish nazarda tutilgan lavozimlar.

Ushbu Nizom talablari mazkur Nizomda belgilangan sub'ektlar uchun majburiy ahamiyatga egadir.

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Ushbu Nizomda quyidagi tushunchalar qo'llaniladi:

vakant lavozim – O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi markaziy apparati va hududiy bo'linmalarida belgilangan, tegishli malakaga ega xodim qabul qilinishi mumkin bo'lgan ma'muriy boshqaruv xodimlari toifasidagi egallanmagan bo'sh lavozim;

ish beruvchi – Raqamli texnologiyalar vaziri yoki uning o'rnini bosuvchi vazirning birinchi o'rinbosari yoki o'rinbosari;

nomzod – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligining "Davlat fuqarolik xizmatchilari vakant lavozimlarining yagona portali"da (keyingi o'rinlarda – Portal) vakant lavozimni egallash bo'yicha nomzod sifatida mazkur Nizomda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan bo'sh (vakant) bo'lgan muayyan ish o'rnini (lavozimni) egallash uchun tanlovda ishtirok etish istagini bildirgan shaxs;

tanlov – ushbu Nizom va amaldagi qonunchilikka asosan, O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi markaziy apparati va hududiy bo'linmalariga ishga qabul qilish, mehnat shartlariga o'zgartirish kiritish va mehnat shartnomasini bekor qilish uchun amalga oshirilayotgan saralash jarayoni;

xodim – qonunchilikka muvofiq Raqamli texnologiyalar vazirligi markaziy apparati va hududiy bo‘linmalarida ishlashga va mehnat faoliyatini amalga oshirishga ruxsat berilgan va muomala layoqati cheklanmagan, muomalaga layoqatli O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari, qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda xorijiy davlat fuqarolari yoki fuqaroligi bo‘lmagan shaxslar;

malaka talablari – nomzodlarga nisbatan ish beruvchi tomonidan belgilanadigan, ish tajribasiga va kasbiy kompetensiyasiga doir talablar.

2. Mazkur Nizomga asosan, tanlov meritokratiya, ochiqlik, muqobillik va mustaqillik tamoyillari asosida o‘tkaziladi.

3. Tanlov paytida nomzodlarni jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e‘tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeiga ko‘ra kamsitishga yo‘l qo‘yilmaydi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi markaziy apparati va hududiy bo‘linmalariga nomzodlarni ishga qabul qilish, ularning mehnat shartlariga o‘zgartirish kiritish O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi markaziy apparati va hududiy bo‘linmalaridagi vakant boshqaruv lavozimlariga tanlov asosida ishga qabul qilishda nomzodlarni saralash Tanlov komissiyasining (keyingi o‘rinlarda – Tanlov komissiyasi) qarori asosida qonunchilikda hamda Vazirlik hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli hujjatlarga muvofiq amalga oshiriladi, bundan quyidagi holatlar mustasno:

xodimlarning o‘z tashabbusiga asosan mehnat shartlariga o‘zgartirish kiritish huquqini amalga oshirish holatlari;

xodim va ish beruvchining o‘zaro kelishuviga asosan mehnat shartlariga o‘zgartirish kiritish holatlari.

5. Tanlov komissiyasi tarkibi Raqamli texnologiyalar vazirligi buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

Tanlov komissiyasi tarkibiga qoida tariqasida quyidagilar kiritiladi:

Tanlov komissiyasi raisi – Vazirning kadriga oid masalalarga mas‘ul maslahatchisi;

Tanlov komissiyasi a‘zolari – ichki audit va korrupsiyaga qarshi kurashish, yuridik ta‘minlash, Vazirlik markaziy apparatining tegishli masalalar bo‘yicha tarkibiy bo‘linma rahbari, kasaba uyushmasi qo‘mitasi raisi;

Tanlov komissiyasi kotibi va ishchi organ – Vazirlikning Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo‘linmasi rahbari.

Qonunchilik hujjatlarida lavozimga tayinlashda nomzodni tegishli vazirlik yoki idora bilan kelishish belgilangan bo‘lsa, Tanlov komissiyasi tarkibiga mazkur vazirlik yoki idoraning mas‘ul vakili ham Raqamli texnologiyalar vazirligi buyrug‘i bilan kiritiladi.

Tanlov komissiyasi tarkibiga Raqamli texnologiyalar vazirligi buyrug‘i bilan davlat organlari, ta‘lim muassasalari hamda vakant lavozimning xususiyatidan kelib chiqib, boshqa mutaxassislar ham kiritilishi mumkin.

Vazirlik va O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat xizmatini rivojlantirish agentligi (keyingi o‘rinlarda – Agentlik) tomonidan doimiy ravishda Tanlov komissiyasi a‘zolarining malakasi oshirib borilishi mumkin.

Tanlov o‘tkazilishi davomida tanlov qoidalarini buzgan hamda qaror qabul qilishda xolislikni ta‘minlay olmagan Tanlov komissiyasi a‘zosi Agentlik tomonidan Tanlov komissiyasi tarkibidan chiqarib yuborilishi mumkin.

Tanlov komissiyasi o‘z faoliyatini kollegiallik, oshkoralik, xolislik, adolatlilik, qonuniylik va betaraflik tamoyillari asosida amalga oshiradi.

Tanlov komissiyasi ish faoliyati o‘zining Reglamentiga muvofiq hal qilinadi va u o‘z Nizomiga asosan ish ko‘radi.

2-bob. Tanlov turlari

6. Vakant lavozimlarini egallash Portal orqali o‘tkaziladigan ichki va tashqi tanlovlar asosida amalga oshiriladi.

Ichki tanlovlarda Raqamli texnologiyalar vazirligi tizimida faoliyat yuritayotgan davlat fuqarolik xizmatchilari, tashqi tanlovlarda esa tegishli malaka talabiga javob beradigan barcha nomzodlar ishtirok etish huquqiga ega bo‘ladi.

7. Ichki tanlovlar vakant lavozim vujudga kelgan kundan boshlab o‘n besh ish kuni ichida e‘lon qilinadi.

Ichki tanlovlar natijasida tanlov g‘olibi aniqlanmagan yoki vakant lavozim vujudga kelgan kundan boshlab o‘n besh ish kuni ichida ichki tanlov e‘lon qilinmagan taqdirda, ushbu vakant lavozim bo‘yicha tashqi tanlov e‘lon qilinadi.

Bitta vakant lavozim uchun bir martadan ortiq ichki tanlov o‘tkazishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Vazirlik markaziy apparati va hududiy bo‘linmalarida boshlang‘ich lavozimlarni egallash faqat tashqi tanlovlar asosida amalga oshiriladi.

3-bob. Tanlovni tashkil qilish

8. Portaldagi vakant lavozimlar to‘g‘risidagi ma‘lumotlar avtomatik “Yagona milliy mehnat tizimi” idoralararo dasturiy-apparat kompleksidagi (keyingi o‘rinlarda – “YaMMT” IDAK) ma‘lumotlar asosida shakllanadi.

9. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi markaziy apparati va hududiy bo‘linmalariga ishga qabul qilish tanlov asosida quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

birinchi bosqich – tanlov o‘tkazilishi to‘g‘risida e‘lon berish;

ikkinchi bosqich – nomzodlarning hujjatlarini qabul qilish va saralash;

uchinchi bosqich – nomzodlarning bilimini test sinovidan o‘tkazish;

to‘rtinchi bosqich – nomzodlar bilan suhbat o‘tkazish;

ushbu Nizomning 35-38-bandlarida nazarda tutilgan bosqich – ushbu bandda nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish.

Tanlovlarda nomzodlar soni uch nafar va undan kam bo'lgan hollarda davlat organi tomonidan tanlovning uchinchi bosqichi o'tkazilmasligi mumkin.

10. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi markaziy apparati va hududiy bo'linmalaridagi vakant lavozimlar ish beruvchi yoki uning topshirig'iga asosan yohud Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'linmalarining tashabbusi yoki manfaatdor bo'linmalarning taklifiga asosan Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'linmalarining tashabbusiga asosan Inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish bo'linmalari Portalda tanlov o'tkazilishi to'g'risida "YaMMT" IDAKdagi ma'lumotlar asosida vakant lavozimlar haqida ma'lumotlarni avtomatik shakllantirish yo'li bilan shakllantiriladi. Vakant lavozimlar to'g'risidagi ma'lumotlar Portalga joylashtirilgan sana mazkur lavozimni egallash bo'yicha tanlov e'lon qilingan kun deb hisoblanadi.

11. Tanlov o'tkazilishi to'g'risidagi e'lon Portalda joylashtiriladi.

Mazkur e'lon Vazirlikning rasmiy veb-sayti va boshqa ijtimoiy tarmoqlarida ham joylashtirilishi mumkin.

Tanlov o'tkazish to'g'risidagi e'londa quyidagilar ko'rsatiladi:

o'tkazilayotgan tanlov turi;

vakant lavozim nomi va unga qo'yiladigan malaka talablari;

lavozim majburiyatlari;

lavozim maoshi;

mehnat sharoitlariga oid ma'lumotlar.

Lavozimlarning ayrim toifalari uchun qo'shimcha talablar mavjud bo'lgan taqdirda, e'longa bu haqda ma'lumot kiritiladi. Portalda tanlov o'tkazilishi to'g'risida e'lon berilayotganida nomzodga qo'yilgan malaka talablari, lavozim majburiyatlari, mehnat sharoitlari to'liq bo'lishi hamda nomzod ushbu talablarga javob berishi zarur.

12. Nomzodlarning hujjatlarini qabul qilish va saralash bosqichi nomzodlarning murojaatlari asosida qabul qilib olinadi va tanlov e'lon qilingan kundan boshlab 5 kalendar kun davomida saralanadi. Tashqi tanlovlar bo'yicha hujjatlarni qabul qilish muddati 10 kalendar kungacha uzaytirilishi mumkin.

Tanlovda ishtirok etish bo'yicha hujjatlar kelib tushmagan taqdirda, hujjatlarni qabul qilish muddati avtomatik tarzda 5 kalendar kunga uzaytiriladi. Tanlovning barcha bosqichlari tanlovda ishtirok etish bo'yicha hujjatlarni qabul qilish muddati tugagan kundan boshlab 20 ish kuni mobaynida o'tkazilishi lozim.

13. Tanlovda ishtirok etish bo'yicha hujjatlar Portal orqali elektron tarzda qabul qilinadi. Nomzodlardan hujjatlar va ularning nusxalarini qog'oz shaklida talab qilish hamda yuborish man etiladi. Nomzodga bir vaqtning o'zida bitta davlat organining bittadan ortiq bo'lmagan vakant lavozimini egallash uchun tanlovda ishtirok etish huquqi beriladi.

14. Nomzodlar tomonidan tanlovda ishtirok etish bo'yicha tanlov natijasiga ta'sir qiladigan yolg'on ma'lumotlar (hujjatda yo'l qo'yilgan texnik xatolik yoki boshqa kamchiliklar bundan mustasno) taqdim etilganligi aniqlanishi ularni

tanlovdan chetlatish yoki tanlov natijalarini bekor qilish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

15. Tanlovda “Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 28-moddasida belgilangan davlat fuqarolik xizmatiga qabul qilinishi mumkin bo'lmagan shaxslardan boshqa barcha shaxslar ishtirok etishi mumkin.

4-bob. Tanlovda ishtirok etish uchun nomzodlarni saralash

16. Tanlov unda ishtirok etish uchun kamida ikkita nomzoddan hujjatlar kelib tushgan taqdirda o'tkaziladi. Tanlovda bitta nomzod hujjatlari kelib tushsa, tanlov o'tkazilmagan hisoblanadi.

17. Tanlov komissiyasiga kiritilayotgan nomzodlarning hujjatlari tegishliligi bo'yicha dastlab Ishchi organ, so'ng Tanlov komissiyasi tomonidan saralanadi hamda hujjatlar qabul qilish muddati tugagan kundan e'tiboran besh ish kuni mobaynida nomzodlarning vakant lavozim uchun belgilangan malaka talablariga mosligini o'rganib chiqadi va malaka talablariga mos kelgan nomzodlar ro'yxatini shakllantirib, o'rganish natijasi bo'yicha nomzodlarning Portaldagi shaxsiy kabinetlariga xabar yuboradi.

Nomzod malaka talablariga mos emas deb topilgan taqdirda, Portaldagi shaxsiy kabinetga yuboriladigan xabarda uning asoslari ko'rsatiladi.

Ishchi organ tanlov bosqichlari o'tkazilishi bo'yicha ma'lumotlarni nomzodlarning Portaldagi shaxsiy kabinetlariga tanlov bosqichlari o'tkazilishi boshlanishidan kamida yigirma to'rt soat oldin yuborilishini ta'minlaydi.

18. Tanlov o'tkazishda oshkoralik va xolislikni ta'minlash maqsadida uchinchi va to'rtinchi bosqichlar videoyozuv orqali yozib olinadi hamda davlat organi tomonidan olti oy davomida saqlanadi.

Tanlov bosqichlari o'tkazilishi to'g'risida o'rnatilgan tartibda Portaldagi shaxsiy kabinet orqali xabardor qilingan, lekin unda ishtirok etmagan nomzodlar tanlovdan chetlashtiriladi.

5-bob. Test sinovlarini o'tkazish

19. Test sinovlari nomzodlarning bilim va malakasini baholash maqsadida Agentlikning Davlat xizmatining yagona elektron-axborot tahlil tizimidagi “Davlat xizmatchilarini sinovdan o'tkazish moduli” – maxsus test tizimi orqali o'tkaziladi.

20. Test sinovlari davlat tilida o'tkaziladi.

21. Test sinovlari ishchi organ tomonidan Vazirlik yoki Agentlikning maxsus jihozlangan xonasida o'tkaziladi.

22. Test sinovlarini o'tkazish jarayonida nomzodlarga quyidagilar taqiqlanadi:

aloqa va telekommunikatsiya vositalari (telefon, kompyuter, planshet va boshqalar), kitob hamda shpargalkalardan foydalanish;

boshqa nomzodlar bilan suhbatlashish;

test sinovlari tugamasdan xonadan tashqariga chiqish.

Mazkur talablarni buzgan nomzod ishchi organ tomonidan dalolatnoma tuzilgan holda tanlovdan chetlashtiriladi.

23. Nomzod tomonidan test sinovlari umumiy ko'rsatkichining kamida 56 foiziga teng ball to'planishi, uning tanlovning keyingi bosqichiga o'tishi uchun asos bo'ladi.

24. Test sinovlari natijalari avtomatik ravishda nomzodning Portaldagi shaxsiy kabinetiga yuboriladi.

25. Test sinovlarini ijobiy topshira olmagan nomzodlar ushbu Nizomda belgilangan tartibda e'lon qilingan yangi tanlovda qatnashishi mumkin.

6-bob. Suhbat bosqichini o'tkazish

26. Test sinovlarini ijobiy topshirgan nomzod keyingi bosqichga qo'yiladi. Keyingi, suhbat bosqichi nomzodning intellektual salohiyati, ma'naviy fazilatlarini hamda kasbiy mahoratini baholash maqsadida o'tkaziladi.

Suhbat intervyu yoki taqdimot (keys-stadi, topshiriq) kabi usullar asosida amalga oshiriladi.

Suhbat jarayonlari videoyozuvlarda qayd etib boriladi hamda real vaqt rejimida translyatsiya qilinadi.

27. Suhbat Tanlov komissiyasi tomonidan o'tkaziladi. Suhbatda Tanlov komissiyasi a'zolari umumiy sonining kamida uchdan ikki qismi ishtirok etganda vakolatli hisoblanadi.

Agar Tanlov komissiyasi a'zosi suhbatdan o'tayotgan shaxsning yaqin qarindoshi bo'lsa yoki suhbat natijasidan bevosita manfaatdor bo'lsa yohud uning xolisligiga shubha tug'diruvchi boshqa holatlar mavjud bo'lsa, a'zo o'zini o'zi rad etishi shart. Mazkur tartibga rioya qilmaslik tanlov natijalarini bekor qilishga asos bo'ladi.

Vazirlik tomonidan ayrim hollarda (davlat organini tashkil etish, qayta tashkil etish) tanlovning suhbat bosqichini o'tkazish bo'yicha Agentlik bilan kelishilgan holda Maxsus Tanlov komissiyasi tuzilishi mumkin.

28. Qonunchilik hujjatlarida lavozimga tayinlashda nomzodni tegishli vazirlik yoki idora bilan kelishish belgilangan lavozimlar bo'yicha Tanlov komissiyasi tarkibiga mas'ul vakili kiritilgan vazirlik yoki idora Ishchi organ tomonidan suhbat o'tkaziladigan kundan kamida uch ish kuni oldin xabardor qilinishi shart.

29. Suhbat bosqichini o'tkazish jarayonida nomzodlarga quyidagilar taqiqlanadi:

Nomzodning shpargalka, suhbatning xolis va shaffof o'tkazilishiga ta'sir ko'rsatadigan har qanday vositadan foydalanishi (suhbat savollari javoblarini olishda yordam beruvchi barcha elektron qurilmalar va qog'oz ko'rinishidagi ma'lumotlar) hamda yon-atrofdan yordam olishga urinishi;

Nomzodning suhbat jarayonida odob-ahloq qoidalariga rioya etmasligi, suhbat jarayoni ishtirokchilarini sha'ni va qadr-qimmatini kamsitishi, ularga psixologik va jismoniy ta'sir ko'rsatishga yo'l qo'yishi.

Mazkur talablarni buzgan nomzod ishchi organ tomonidan dalolatnoma tuzilgan holda tanlovdan chetlashtiriladi.

30. Vazirlikning nomenklaturasiga kiritilgan lavozimlarga tanlov o'tkazilayotgan taqdirda nomzodlarga Suhbat jarayonidan avval "Davlat sirlarini saqlash to'g'risida"ga qonunga muvofiq, tegishli tartibda ruxsatnomalar rasmiylashtirilishi, ushbu jarayonda vakolatli idora tomonida rad javobi berilishi mumkinligi tushuntiriladi.

31. Suhbatning intervyu usulida har bir nomzodga soha bo'yicha bilim saviyasi, shaxsiy va kasbiy kompetensiyasi, umumiy dunyoqarashi hamda vakant lavozim uchun mosligini aniqlashga qaratilgan beshta savol (topshiriq) tasodifiy tanlash (avtomatik generatsiya) orqali beriladi. Asosiy savollardan so'ng berilgan javoblarni aniqlashtirish maqsadida ko'pi bilan beshta qo'shimcha savol berishi mumkin.

Savollar (topshiriqlar) Vazirlik tomonidan ishlab chiqilib, rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

32. Suhbatning taqdimot usulida ishchi organ tomonidan suhbat o'tkazish kunidan uch kun oldin nomzodlarning Portaldagi shaxsiy kabinetiga taqdimot (topshiriq) mavzulari yuboriladi.

Suhbat davomida nomzod berilgan mavzulardan biri bo'yicha taqdimot qilib beradi. Taqdimotdan so'ng Tanlov komissiyasi a'zolari har bir nomzodning taqdimot mavzusi doirasida aniqlashtirish maqsadida ko'pi bilan beshta qo'shimcha savol berishi mumkin.

33. Nomzodlarni baholash uchun har bir Tanlov komissiyasi a'zosiga Portalda shaxsiy kabinet ochiladi.

Tanlov komissiyasi a'zolari har bir nomzod shu kunning o'zida Portaldagi shaxsiy kabinetini orqali onlayn tarzda nomzodlarni to'rtta yo'nalishda (bilim saviyasi, shaxsiy va kasbiy kompetensiyasi, umumiy dunyoqarashi, vakant lavozim uchun mosligi) 100 ballik tizim asosida baholaydi.

34. Suhbat yakunlari bo'yicha Tanlov komissiyasi a'zolari tomonidan nomzodga qo'yilgan ballarni avtomatik ravishda umumlashtirilib, yakuniy ball hisoblanadi. Tanlov g'olibi deb topilgan nomzodning o'rtacha bali 56 balldan past bo'lishi mumkin emas.

Suhbat natijasiga ko'ra eng yuqori yakuniy ball to'plagan nomzod tanlov g'olibi deb topiladi, bundan ushbu Nizomning 35-37-bandlarida nazarda tutilgan holatlar mustasno.

Mazkur Nizomning 35-37-bandiga tegishli bo'lgan, shu jumladan, amaldagi qonunchilik hujjatlari va boshqa hujjatlarda vakolatli davlat organlari va tashkilotlari bilan kelishish nazarda tutilgan yoki tegishli davlat organlarining ruxsati zarur bo'lgan holatlarda tanlov g'oliblari keyingi bosqichga o'tkazaladi va mazkur holatda qachonki mazkur xodim nomzodi vakolatli davlat organlar va tashkilotlar tomonidan ijobiy kelishib berilgan bo'lsa yoki ular ruxsat bergan taqdirdagina Tanlov komissiyasi bayonnomasi bilan tasdiqlanib, tanlov g'olib deb e'tirof etiladi.

Bunda:

Nomzodlarning ballari teng bo'lgan taqdirda Tanlov komissiyasi raisining xulosasiga asoslanib yakuniy qaror qabul qilinadi.

Tanlov g'olibi o'z arizasiga ko'ra mehnat shartnomasini tuzishdan bosh tortgan taqdirda, Tanlov komissiyasi xulosasiga asosan hisoblangan o'rtacha ballga ko'ra navbatdagi o'rinni egallagan nomzod tanlov g'olibi deb topilishi mumkin.

35. Qonunchilik hujjatlarida vakant lavozimga tayinlashda nomzodni tegishli vazirlik yoki idora bilan kelishish lozimligi belgilangan bo'lsa, ishchi organ qaror qabul qilingan kundan e'tiboran uch ish kuni mobaynida tegishli hujjatlarni vazirlik yoki idoraga kelishish uchun yuborishi lozim.

Vazirlik yoki idora bilan nomzodning kelishilishi qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Kelishuv yakuni bo'yicha tegishli nomzod ijobiy kelishilgan taqdirda keyingi bosqichga o'tkaziladi.

36. Tanlov natijalari bo'yicha g'olib bo'lgan shaxs hujjatlari va ish faoliyati, shuningdek, uning shaxsiga bog'liq bo'lgan masalalar amaldagi qonunchilik hujjatlari va Vazirlik hujjatlariga asosan komplains bo'linmasi tomonidan o'rganilib, natijasi ijobiy bo'lganida g'olib keyingi bosqichga o'tkaziladi.

37. Tanlov bo'yicha nomzodlar ushbu Nizomning 36-37-bandlariga asosan ijobiy kelishib berilib, keyingi bosqichga o'tkazilgan taqdirda mazkur bandlarda belgilangan nomzodlar tanlov g'olib deb tanlov komissiyasi tomonidan e'tirof etilishi mumkin va bu komissiyaning tegishli bayoni bilan tasdiqlanadi.

Ushbu Nizomning 35-36-bandiga asosan, nomzodi ijobiy kelishilmagan, ruxsat berilmagan va keyingi bosqichga o'tmagan xodimlar tanlov g'olib deb e'tirof etilmaydi va bu komissiya bayoni bilan tasdiqlanadi.

38. Agentlik suhbatda kuzatuvchi sifatida ishtirok etish uchun o'z vakilini yuborish huquqiga ega.

Agentlikning vakili suhbat o'tkazish jarayoni tanlovni tashkillashtirish va o'tkazish qoidalariga mos kelishi, shuningdek, tanlov Tanlov komissiyasining xolis qaror qabul qilishi bo'yicha nazorat olib boradi.

39. Nomzodlar tanlov Tanlov komissiyasi qaroridan norozi bo'lgan taqdirda qaror qabul qilingan kundan boshlab bir oy muddatda tanlov natijalari bo'yicha Tanlov komissiyasi qarori ustidan yuqori turuvchi organga, Agentlikka yoki sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

40. Tanlov g'olibi aniqlangan kundan e'tiboran besh ish kuni ichida davlat organining rahbari tanlov g'olibi bilan mehnat shartnomasini tuzadi.

Ishchi organ tomonidan bir kunlik muddatda Tanlov Tanlov komissiyasining bayonnomasi va tanlov g'olibi bilan tuzilgan mehnat shartnomasi Portalga joylashtiriladi.

7-bob. Yakuniy qoidalar

41. Ushbu Nizomda nazarda tutilmagan barcha qoidalar va holatlar amaldagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

Qonunchilikni qo'llashda nizoli holatlar vujudga kelgan taqdirda qonun va huquq bo'yicha analogiyaga hamda vazirlik hujjatlarini qo'llashga ruxsat etiladi.

42. Nomzod, Xodim, Tanlov komissiyasi, ish beruvchi, Agentlik va ushbu Nizomga aloqadar shaxslar o'rtasidagi har qanday ziddiyatli holatlar mediatsiya o'tkazish yo'li bilan hal qilinadi yoki to'g'ridan-to'g'ri sud tartibida amalga oshiriladi.

43. Mediatsiya bo'yicha taraflar o'zaro kelisha olmagan taqdirda ham nizo sud orqali hal etilishi mumkin.

44. Tanlov komissiyasining a'zolari hamda tanlov jarayoni ishtirokchilari tomonidan tanlov davomida nomzodlar to'g'risida olingan shaxsiy ma'lumotlarni oshkor qilish taqiqlanadi.

45. Ushbu Nizom talablarining buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonunchilikda belgilangan tartibda javobgarlikka tortiladi.